

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU
TOŠKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931



SIMON KARIMOV NOMIDDI
TOŠKENT DAVLAT TEKHNIKA UNIVERSITETI
1955

TDTU
TOŠKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI
1955

TJU
TOSHKENT DAVLAT
ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabeck Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekomunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'ortalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Аброр Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faoliytkni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailiya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lif xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullahayev Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Приименение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Нельматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Фанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	
Davlat budgetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni	230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida	234
Xushnazarova Maxzuna Gulamjanova	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari	239
Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev	



Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni	244
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Managing Tourism in Fragile Ecosystems: A Case Study Approach	251
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity	258
Shamshinur Yakubova	
Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari	263
Ayubov Ilyos Ilhomovich	
Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish	268
Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li	
O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi: omillar va ko'rsatkichlar tahlili	274
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Iqtisodchi va bugalterlarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati	282
Sohibova A'loxon Zafarjon qizi	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamlı kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari ..	286
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Sug'urta faoliyati hisobining normativ-huquqiy asoslari	292
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
Raqamli iqtisodiyot: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish	301
Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich	
Sport maktabalaridagi yoqari sinf o'quvchilarining chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	306
Qon'irbayev Dastan	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в Узбекистане	311
Салимов Шерзод Бахтиёрович	
Cleaning of Salt Water Using Reverse Osmosis	316
Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf	
Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditni uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish	326
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Turizm investitsion salohiyatiga ta'sir kuchlari va ularga yechim	331
Ayubov Ilyos Ilhomovich	
Korxonalarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishda shaffoflikni ta'minlash va xorij tajribalaridan foydalanish istiqbollari	335
Rizakulov Abdurauf Abdimalilibovich	
Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: A Review of Global and Regional Strategies	342
G'aforova Zarina Otabek qizi	
Raqamli iqtisodiyotda telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish omillari va iqtisodiy samaradorligi tahlili (o'zbekiston misolida)	348
Xazratov Abror Panjiyevich	
Smart tourism konsepsiyasining o'zbekistonda joriy etilishi: infratuzilma, xizmatlar va raqamli innovatsiyalar tahlili	352
Abriev Zoirjon	
The Development of Tourism Management as a Significant Part of Economy in Uzbekistan	358
To'xtarova Feruzahon Yuldashevna	
Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish turlari: metodologiyasi va amaliy qo'llanilishi	362
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	



Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления Машарипова Шахло Адамбаевна	366
Buxoro viloyat hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish Akramov Doniyor Rustam o'g'li, Usmonov Muradxon Saidmaxmudovich	372
Интегрированный механизм оценки финансового состояния предприятия Tajibayeva Kizlulgul Ajiniyazovna	376
Ecosystem Services Under Ecological Stress: the Case of the Former Aral Sea Umidjan R. Nazarkulov	383
O'zbekistonda iqtisodiy ta'lim muammolarini virtual platformalar orqali bartaraf etish yo'llari Jalolova Madina Shopo'lat qizi	388
Temir yo'l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish ("toshkent mexanika zavodi" aj misolida) Xudoyerova Mehrangiz	393
Развитие инклюзивного образования на основе социального маркетинга и цифровизации сферы .. Адилова Зулфия Джавдатовна , Шоев Алим Халмуратович	400
Qurilish jarayonlarini boshqarishning xorij tajribalari va ularning milliy investitsion-qurilish sohasiga transformatsiyasi .. Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	408
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisbotni tayyorlashni takomillashtirish..... Xayitboyev Muhammadiy Israfilovich , Abduraimova Maftunaxon Axmatovna, Ovlaev Suhrob Temur o'g'lim , Yo'ichihev Oybek Ulug'bek o'g'li	414
Iqtisodiy-ekologik hududlarda pillachilik biznesining mazmuni va mohiyati..... G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	419
Yashil moliyalashuv: bank faoliyatidagi huquqiy asoslar va amaliy yondashuvlar..... Mirzaxmedova A. A.	427
Tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .. Mirzaxmedova A. A.	432
O'zbekistonda inson kapitali raqamli transformatsiya sharoitida: muammolar, imkoniyatlar va strategik yechimlar .. Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, Abdunosirova Nilufar Ravshanbek qizi	437
Tijorat banklari aktivlarining samaradorlik ko'rsatkichlari istiqbollari..... Xojiyev Jaxongir Dushabayevich	442
Aholi turmush farovonligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari .. Norqobilov Nusratilla Norsaitovich	447
Progression of Small Business and Entrepreneurial Activity in Uzbekistan .. Dauletbaeva Ulzada Bakhadirovna	450
Raqamli moda dizayni va ishlab chiqarish usuli uchun clo3D ma'lumotlar bazasi .. Temirova Gulnoz Ibodovna, Esanova Ma'rifikat G'ayratovna	454
Xususiy ta'lim muassasalarini boshqarishni takomillashtirishning amaliy jihatlari .. Karimov Ulug'bek Usmonovich	459
Global iqtisodiyotda bank tizimini raqamlashtirishning ahamiyati..... Karimova Komila Daniyarovna, Sulxonberdiyeva Shodiya Shuxrat qizi	465
Dasturiy vositalarning o'zaro muvofiqlikda ishslash metodlari va algoritmlari tahlili .. Oybek Allamov, Boburbek Babajanov, Jahongir Bekturdiyev	470
Mamlakatimizdagи tijorat banklari aktivlarini boshqarishning amaldagi holati tahlili .. Baxriddinov Sharofiddin	475
Surxondaryo viloyati hududlarida tadbirkorlik faoliyati va uning iqtisodiy rivojlanish dinamikasiga ta'siri Normurodov Alibek Anvar o'g'li	483



Методика выбора оптимальной стратегии обеспечения финансовой безопасности текстильных предприятий	489
Турсунов Бобир Ортиклимирзаевич	
Kimyosanoat korxonalarida “tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasini tadbiq etish samaradorligi tahlili	494
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Buxoro shahar hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish	499
Akramov Doniyor Rustam o'g'li, Usmonov Muradxon Saidmaxmudovich	
Aksiyadorlik jamiyatlari qarz kapitalini boshqarish siyosatining muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga ta'siri	503
Kurbanov Xayrilla	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirish va xorijiy tajribalar	510
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Buxoro shahri turar-joy hududlarini takomillashtirish	516
Odilov A.B	
Buxoro shahrining barqaror rivojlanishida shahar infratuzilmasini yaratish metodlari	522
Xasanov Feruz Anvarovich, Reyimbayev Shuxrat Sadullayevich	
Paxta chigitidan yog' olishda qovurish jarayonining bazi aspektlari	527
Artiqov A. , Fayziev E.U.	
Перспективы развития международного финансового центра в узбекистане	530
Нуритдинова Мафтуна Жахонгировна	
Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: a Review of Global and Regional Strategies	535
Zarina Gafarova	
Tijorat banklarida kredit operatsiyalari samaradorligini yaxshilash	541
ISMAILOV TIMUR KUATBAEVICH, SULTAMURATOV QALLIBEK, SAGINBAEV SULTANBEK TURDIBAY O'G'LII	
Ekologik mehmonxonalar xizmat korsatish faoliyati davomida atrof -muhitga ta'sirini organish.	545
Abidova Dilfuza Igamberdievna	
Mamlakatimizda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy tahlil hamda takomillashtirish yuzasidan takliflar	551
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Анализ практики управления системой формирования финансовых ресурсов высших учебных заведений	558
Гулшат Карлибаева	
Kogon shahrida amir saroyining qurilishi va modern arxitekturaning kirib kelishi	562
Nabihev Hamid Mirzaevich	



KOGON SHAHRIDA AMIR SAROYINING QURILISHI VA MODERN ARXITEKTURANING KIRIB KELISHI

Nabiyev Hamid Mirzaevich

Buxoro davlat texnika universiteti,
"Arxitektura" kafedrasi o'qituvchi-stajyori.
Tel:+998 94 407 64 00
E-mail: khamidoff95_95@mail.ru

Annotatsiya: Buxoro amirining Kogon shahridagi saroyi-Buxoro amirligining tarixiy va madaniy merosiga oid muhim obidalardan biridir. Kogon shahri Buxoro viloyatida joylashgan bo'lib, o'zida ko'plab tarixiy binolarni saqlab kelmoqda. Amirning saroyi o'z davrida amirlikning siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri bo'lgan. Mazkur saroyda turli arxitektura uslublari, nafis bezaklar va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan elementlar mujassam. Bu yerda nafaqat amir oilasi istiqomat qilgan, balki davlat idoralari ham faoliyat yuritgan. Saroy hozirgi kunda sayyoohlar uchun qiziqarli manzillardan biri hisoblanadi va ularning Buxoroning boy tarixi bilan tanishishiga imkon yaratadi. Xususan, Kogon shahrida joylashgan tarixiy-me'moriy yodgorliklardan biri-Buxoro amiri Abdulahadxon (1894–1903-yillar) tomonidan yevropa va sharq arxitektura uslublari uyg'unligida qurdirilgan hashamatli saroy bo'lib, u bugungi kunga qadar saqlanib qolgan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Kogon, somonli loy, o'yuma naqshlar, meros obektlari.

Abstract: The palace of the Emir of Bukhara in the city of Kogon is one of the important monuments of the historical and cultural heritage of the Emirate of Bukhara. The city of Kogon is located in the Bukhara region and has preserved many historical buildings. The Emir's Palace was once one of the political and economic centers of the emirate. The palace has various architectural styles, beautiful decorations and elements of historical importance. Not only the emir's family lived there, but also state offices. The palace is now an interesting destination for tourists and allows them to get acquainted with the rich history of Bukhara. Among the historical monuments in Kogon, the luxurious palace of Bukhara emir Abdulahad Khan (1894-1903) built by combining European and Eastern styles has been preserved.

Keywords: Bukhara Emirate, Kogon, adobe bricks, carved ornaments, heritage sites.

Аннотация: Дворец Бухарского эмира в городе Когоне является одним из важных памятников историко-культурного наследия Бухарского эмирата. Город Когон расположен в Бухарской области и сохранил множество исторических построек. Дворец Эмира когда-то был одним из политических и экономических центров эмирата. Дворец имеет различные архитектурные стили, красивые украшения и элементы исторического значения. Здесь проживала не только семья эмира, но и государственные учреждения. Сейчас дворец является интересным местом для туристов и позволяет познакомиться с богатой историей Бухары. Среди исторических памятников Когона выделяется роскошный дворец бухарского эмира Абдулахад-хана (1894-1903), построенный в сочетании европейского и восточного стилей. сохранилось.

Ключевые слова: Бухарское эмирство, Каган, саманный кирпич, резные орнаменты, объекты наследия.

KIRISH

Buxoro amirligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutgan-Kogon shahridagi amir saroyi bugungi kunda tarixiy-me'moriy yodgorlik sifatida alohida e'tiborga loyiqidir. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amiri Abdulahadxon tomonidan qurdirilgan ushbu saroy, yevropa va sharq arxitektura uslublarining o'ziga xos uyg'unligi, bezak elementlarining boyligi, texnikaviy innovatsiyalar bilan ajralib turadi. Saroyning qurilish tarixi, undagi arxitektura echimlari va bezak san'atining namunaviy ifodasi, o'sha davr Buxoro amirligining modernizatsiyalash harakatlarini yoritib beruvchi muhim manbadir. Mazkur tadqiqot Kogon saroyi misolida Buxoro amirligi davridagi me'morchilik yondashuvlarini o'rganishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur tadqiqot doirasida me'morchilik tarixiga doir bir qancha asosiy manbalar o'rganildi. Jumladan, Vaxitov M.M. va Mirzaev Sh.R. tomonidan tayyorlangan "Me'morchilik tarixi" darsligida O'zbekiston hududidagi tarixiy me'moriy obidalar rivoji keng yoritilgan. Bo'latov S.ning "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati" nomli asarida bezak uslublari, xususan, ganch o'ymakorligi san'atining texnik va estetik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, Sh.Mirzayev va F. Xasanov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Buxoro me'morchilik maktabi an'analari haqida atroflicha ma'lumot berilgan. Bu adabiyotlar Kogon saroyining arxitektura va bezak tizimini kontekstual o'rganish imkonini beradi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-hujjatli tahlil, me'moriy-tarixiy yondashuv, joyida kuzatuv va tasviriy manba tahlili usullari qo'llanildi. Saroyning qurilish jarayoni, bezak uslublari, ichki va tashqi arxitekturasi haqidagi ma'lumotlar dastlabki arxiv manbalar, suratlar, mavjud yozma manbalar va zamonaviy kuzatishlar orqali yig'ildi. Shuningdek, Leontiy Benua tomonidan ishlab chiqilgan loyihalarning chizmalariga tayanilgan holda saroyning funksional va badiiy yechimlari tahlil qilindi. Arxitektura elementlari, ayniqsa, Golland uslubidagi isitish tizimi va saroydagi havoni tabiiy aylantirish mexanizmlari alohida texnik yondashuv asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR


XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirining tashabbusi bilan amirlikka qarashli hududlardan ilk temir yo'l o'tkazildi. 1888-yil 26-fevral kuni birinchi poezd Buxoro amirligi hududiga kirib keldi. Temir yo'lning qurilishi, avvalo, kiborlar toifasi uchun katta quvonch va mammuniyat uyg'otdi.

Buxoro amiri Sayyid Bahodir Abdulahadxon 1885-1910-yillar mobaynida Peterburg, Moskva va Qrim shaharlariga o'z oilasi hamda amaldorlari bilan ko'p bora safarlar uyuştirdi. Amir Yalta, Kislovodsk, Pyatigorsk, Jeleznovodsk kabi kurort shaharlardagi eng bahavo, mineral suvlarga boy bo'lgan hududlardan yer sotib olib, u yerda o'z qarorgohlarini barpo eta boshladi.

1894-yilda amir Abdulahadxon Buxoro amirligi hududida ham, ayniqsa, xorijdan keladigan mehmonlarni munosib tarzda kutib olish maqsadida saroy qurdirishga ahd qiladi. Ushbu g'oya unga 1892-yilda yaqin kishilar bilan Rossiya shaharlari bo'ylab navbatdagi sayohat chog'ida tinchlik bermaydi. Kavkaz, Peterburg, Moskva, Kiev, Yalta, Bog'chasarov va Tiflis shaharlarida bo'lib, u yerda rus aslzodalari hashamatli hayoti bilan tanishgan amir barcha qulayliklarga ega, milliy va yevropa uslubidagi muhtasham qarorgoh qurish haqida farmon beradi.

Dastlab saroyni Buxoro shahrining ichki hududida qurish rejlashtirilgan edi. Biroq Buxoroning taniqli diniy ulamolari bunga qat'iy qarshilik bildiradi. Ularning fikriga ko'ra, g'ayridinlarning Buxoro shahriga kirishi maqsadga muvofiq emas edi. Natijada, saroyni Buxorodan 12 km sharqda joylashgan "Yangi Buxoro"-keyinchalik Kogon deb atalgan shaharchada barpo etish bo'yicha yakdil qarorga kelinadi.

Saroy qurilishi Buxoro amiri Abdulahadxon tomonidan o'z davrining mohir me'mori-Leontiy Nikolaevich Benuaga ishonib topshiriladi. Oradan qariyb ikki yil o'tib, Benua saroy loyihasini ishlab chiqadi va uni amirga taqdim etadi (1-rasm).



a)



b)

**1-rasm: Benua tomonidan ishlab chiqilgan saroyning bosh fasadi chizmada (a) va amalda (b)**

Benua tomonidan ishlab chiqilgan loyiha har tomonlama puxta o'ylangan bo'lib, unda mehmonlarni kutib olish uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklar ko'zda tutilgan edi. Jumladan: mehmonxonalar, tamaddixonalar, dam olish xonalari, yotoqxonalar, vannaxonalar, hashamatli kutish zallari va ikkinchi qavatda hordiq chiqarish uchun maxsus ayvonlar mavjud bo'lishi rejalashtirilgan edi. Ushbu loyiha amirga ma'qul bo'ladi va saroy qurilishi boshlanadi.

Saroy qurilishi 1895-yilda boshlangan. Inshoot Mavritaniya uslubida, barokko, ampir hamda arab va milliy naqsh o'ymakorligi elementlari uyg'unligida, buxorolik va russiyalik mohir ustalar ishtirokida barpo etilgan. Saroy bezaklarida asosan mahalliy ganch materialidan foydalilanilgan bo'lib, har bir xona o'ziga xos tarzda, yuksak hunarmandchilik mahorati bilan bezatilgan. Binoning ichki va tashqi qismlari murakkab tuzilishga ega bo'lib, o'zaro stilistik uyg'unlikda yaratilgan. Qurilish ishlariga mohir muhandis Dubrovin rahbarlik qilgan. Behisob ustunlar, ulkan gumbazlar va minoralar saroyga yanada ulug'vorlik va mahobat bag'ishlab turadi (2-rasm).

**2-rasm: Saroyning salobatli tashqi ko'rinishi (2022-yil)**

Binoning avyonni, katta zali va yotoqxonasi nihoyatda jozibali va boy uslubda bezatilgan. Ayniqsa, Toshkentlik ganchkor ustalarning ishlari o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, o'yma naqsh kompozitsiyalarida yirik shohbarg va tup barg shakkllari jinjimador tarzda mujassam etilgan. Bu yerda pardozungning deyarli barcha uslublari qo'llanilgan. Devorlarga o'yilgan ganch o'ymakor namoyonlar vertikal hamda gorizontal tarzda joylashtirilgan bo'lib, ularning atrofi geometrik shakklardagi ensiz zanjira va islimiyl hoshiya naqshlari bilan bezatilgan. Ushbu namoyonlar yuqoriga qarab o'sayotgan tabiat o'simliklarini eslatadi.

Pardoz turlari xonaga tushayotgan yorug'likka mos ravishda juda o'rini tanlangan. Derazalardan tushgan tabiiy yorug'lik naqshlarning badiiy ifodasini yanada kuchaytirgan. Namoyonlarga nazar tashlagan har qanday tomoshabin-xoh uzoqdan, xoh yaqindan bo'lsin-ularning o'ziga xos jozibasini darhol his qiladi. Albatta, ustalar bu badiiy effektlarni oldindan hisobga olganlar. Namoyonlar go'zal tabiat manzarasining nafis va san'atkorona tasvirini eslatadi. O'yma ganch zaminlari esa ajoyib ranglarda bezatilgan bo'lib, ularning badiiy ifodasi yuksak darajadagi hunarmandchilik namunasi hisoblanadi. Saroy xonalari ganchdan ishlangan, Golland uslubida qurilgan pechlar yordamida isitilgan (3-rasm).



3-rasm: Saroy xonalari ganchdan ishlangan Golland uslubida qurilgan pechlari

Ushbu pechlар yagona muhandislik sxemasiga asosan faoliyat ko'rsatgan. Ya'ni, xona devorlari orasida havo erkin harakatlana oladigan ochiq yo'lakchalar tizimi qurilgan bo'lib, pechlardan chiqayotgan issiqlik hech qanday to'siqsiz shu yo'lakchalar orqali butun bino bo'ylab tarqalgan va xonalarni barqaror issiqlik bilan ta'milagan. Xuddi shu yo'lakchalar tizimi yozgi mavsumda ham muhim funksiyani bajargan: binoning taxminan 3 metr chuqurlikdagi yerto'la qismida maxsus tuynuk ochilib, u orqali salqin havo yuqoriga yo'naltirilgan va butun saroy xonalari bo'ylab tarqalgan.

Shunday qilib, Benua tomonidan ishlab chiqilgan ushbu muhandislik yechimi natijasida saroy xonalari qish faslida iliq, yozgi mavsumda esa salqin haroratda ushlab turilgan. Bu yechim o'z davri uchun ilg'or va funk-sional jihatdan mukammal hisoblangan.

Saroyning to'g'ri burchakli tarhi bo'ylama o'q bo'ylab cho'zilgan yirik zallardan iborat bo'lib, ularning biridan ikkinchisiga erkin o'tish imkoniyati mavjud. Tarh markazida eng katta zal joylashgan (4-rasm).




4-rasm: Saroyning inter'eri

Amir Abdulahadxon davrida turli xil rasmiy yig'ilishlar, qabul marosimlari va bazmlar aynan ushbu zalda tashkil etilgan. Zal devorlarida joylashgan bo'rtma shakldagi bezaklar mahalliy ganch materialidan mohirona tarzda ishlangan bo'lib, ularning har biri yuksak badiiylik va hunarmandchilik namunasi hisoblanadi. Xonadagi yettita Golland uslubidagi pech zalning umumiyo ko'rkiga uyg'unlashgan holda, uning muhtashamligini yanada oshirib turgan.



Mazkur katta zalning pol va shift qismlari keyinchalik almashtirilgan bo'lishiga qaramay, devorlaridagi bo'rtma ganchkor bezaklar asl holicha saqlanib qolgan. Har bir xona devorlarida ishlangan anvoyi gulli bezaklar esa sharqona ruh va estetikani ifodalaydi (5-rasm).



5-rasm: Devorlardi bezaklarni umumiy ko'rinishi

Binoning ikkinchi qavatiga ixcham aylanma zinapoya yordamida chiqiladi (6-rasm) xonalariga esa kungurador arkalar bilan bezatilgan ochiq ayvonchalar orqali o'tiladi (7-rasm).



6-rasm



7-rasm

Ikkinchi qavatning ayvon qismida Qur'on oyatlari arab alifbosida ganchkor bezaklar bilan gulkori uslubda bitilgan. Xuddi shunday yozuvlarni binoning g'arbiy tomonidagi kirish eshigi ustida joylashgan ayvon ustunlarida ham ko'rish mumkin; bu yozuvlar yog'och o'ymakorligi san'ati vositasida bezatilgan. Uchinchi qavatdan, asosan, zarur hollarda va xavfsizlik maqsadida foydalanilgan. Saroyning g'arbiy eshididan kiriladigan xona nihoyatda maftunkor, milliy uslubdagi bezaklar bilan gulkori tarzda bezatilgan bo'lib, amirlik davrida qabulxona vazifasini bajargan. Mazkur xonaning devorlaridagi mohirona chizilgan naqshu nigorlar oradan bir asrdan ziyod vaqt o'tgan bo'lishiga qaramay, hanuzgacha o'z jilosini yo'qotmagan. Tomoshabinda u naqshlar go'yoki yaqinda chizilgandek taassurot qoldiradi.

Xonaning sharqiy devorida Golland uslubida qurilgan pech mavjud. G'arbiy devori esa yoysimon shaklda bo'lib, ikki qavatli sathda vitrajlar o'rnatilgan. Saroya jami uchta eshik orqali kirish mumkin bo'lib, ular binoning uch tomonida joylashgan. Me'mor loyiha tuzishda shunday yechimni tanlaganki, saroya bir eshikdan kirgan kishi ichki makonlar orqali harakatlanib, boshqa eshikdan bermalol chiqib ketishi mumkin. Amir Abdulahadxon davrida saroyning sharqiy va janubiy qismlarida hovli ichkarisida favoralar mavjud bo'lgan. Afsuski, bu favoralar bugungi kunga qadar saqlanib qolmagan. Moxi-Xossa saroyi singari, ushbu saroy ham zamonaviy dvijok qurilmasi yordamida elektr energiyasi bilan ta'minlangan.



Saroy jami 4 hektar yer maydonini egallagan. Bog' qismida katalpa, dub, yovvoyi kashtan, akatsiya kabi manzarali daraxtlar ekilgan bo'lib, ular tashrif buyurgan mehmonlarni o'z zamonasidagina emas, balki bugungi kunda ham hayratga solishda davom etmoqda. Ushbu saroy XX asr boshlaridagi eng ko'zga ko'rigan arxitektura yodgorliklaridan biri sifatida tarixda o'z izini qoldirgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Kogon shahridagi Buxoro amiri Abdulahadxon saroyi Buxoro amirligining modernizatsiya bosqichidagi eng yirik me'moriy yutuqlaridan biri ekani aniqlangan. Saroy arxitekturasida Yevropa va Sharq uslublarining muvozanatli uyg'unligi, zamonaviy muhandislik yechimlarining joriy etilishi hamda bezak san'atining yuksak namunalarini ko'rish mumkin. Bu jihatlar mazkur saroyni nafaqat tarixiy obida, balki muhim madaniy meros ob'ekti sifatida baholash imkonini beradi. Ushbu xulosalarga asoslanib, saroyni ilmiy asosda saqlab qolish, arxitektura va dizayn sohalarida o'quv-metodik resurslarga aylantirish, shuningdek, uning turizm salohiyatini oshirish borasida qator takliflar ilgari surilmoqda. Jumladan, saroyning ilmiy restavrasiyasini amalga oshirish va asl holatini saqlashga qaratilgan maxsus loyiha ishlab chiqilishi lozim; me'moriy yechimlari asosida zamonaviy arxitektura va dizayn yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanmalar yaratish imkoniyati mavjud; obidaning madaniy-turistik salohiyatini kuchaytirish maqsadida virtual sayohatlar, 3D rekonstruksiyalar kabi multimedia materiallarni ishlab chiqish tavsija etiladi; bundan tashqari, O'zbekistonning tarixiy arxitektura yodgorliklari ichida Kogon saroyini alohida e'tiborga molik ob'ekt sifatida UNESCOning Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritish uchun zarur hujjatlarni tayyorlash dolzarb masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Vaxitov M. M., Mirzaev Sh. R. Me'morchilik. I qism: Me'morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2010-yil.
2. Shabonova N., Tursunov M. "Olis yo'llar, olis yo'llar" // Buxoro – Sharq durdonasi. – 1997-yil.
3. "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-hissadorlik kompaniyasi Buxoro bo'ilimi tashkil etilganligining 50 yilligiga bag'ishlab chiqarilgan jurnal. – 1997-yil.
4. Bo'latov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent: Mehnat, 1991-yil.
5. Polyakova E. A., Rahimova Z. I. Sharq miniatyurasi va adabiyoti. – Toshkent, 1987-yil.
6. Ismuhamedova D. U. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi. – Toshkent, 2009-yil.
7. Tursunov X. K. Qishloq aholi punktlarini rejalashtirish. – Toshkent, 2015-yil.
8. Po'latov X. Shaharsozlik tarixi. – Toshkent, 2008-yil.
9. Mirzayev Sh., Xasanov F. A. Buxoro turar-joy me'morchiligi an'analari. – Zenodo, 2022-yil. – B. 488–492. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6570415>
10. Zenodo elektron manbasi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6570419>
11. Web of Journals ilmiy platformasi. <https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/1123>
12. Vikipediya: <https://ru.wikipedia.org>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100